



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokhboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
---	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126

**Aduramanov Xamid Xudaybergenovich,**

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
direktori o’rinbosari, i.f.d., professor*



**Zokirov Shuhrat,**

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
ilmiy xodimi*



# **XOTIN-QIZLAR O’RTASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA ULARNI QO’LLAB-QUVVATLASH BO’YICHA XORIJ TAJRIBASI**

**ANNOTATSIYA.** Maqolada xotin-qizlar o’rtasida tadbirkorlik va biznes faoliyatini rivojlanirish, ushbu yo’nalishda ularni qo’llab-quvvatlash masalalari bo’yicha ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribasi tadqiq qilingan. Ushbu tajribalar asosida mamlakatimizda xotin-qizlar o’rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В статье рассматривается опыт передовых зарубежных стран по развитию предпринимательства и деловой активности среди женщин, их поддержка в этой сфере. На основе этого опыта разработаны предложения по развитию предпринимательства среди женщин в нашей стране.

**Annotation.** The article discusses the experience of many foreign countries in the development of entrepreneurship and business among women, support for them in this area. Based on this experience, proposals have been cultivated for the development of entrepreneurship among women in our country.

**Tayanch tushunchalar:** xotin-qizlar tadbirkorligi, tadbirkor ayollar indeksi, ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash, qulay biznes muhiti, imtiyozli kreditlar; ta'lim va kasbiy ko'nikmalar.

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, индекс женского предпринимательства, поддержка женского бизнеса, благоприятная деловая среда, льготные кредиты, образование и профессиональные навыки.

**Keywords:** women's entrepreneurship, women's entrepreneurship index, support for women's business, supportive business environment, soft loans, education and skills.

**"Mamlakatimiz  
aholisining  
qariyb yarmi –  
17 millioni xotin-  
qizlardir. Ularning  
manfaatlarini  
ta'minlash, jamiyat  
hayotidagi o'rniini  
mustahkamlash  
davlatimiz ijtimoiy  
siyosatining  
muhim yo'nalishi"**

**Kirish.** So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan: "Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rniini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi", – deb ta'kidlanishi buning yaqqol isbotidir.

Ta'kidlash joizki, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqсадida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish yuzasidan hamda 85-maqсадida ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ish bilan band bo'lмаган xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalg qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilangan<sup>1</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagи "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarorida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ти ПФ-60-сонли Фармони.

kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli qoidalari asosida mamlakatning uzoq muddatli maqsadlari va ustuvorliklariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasining ishlab chiqilganligi ham ayollarning barcha sohalarda, xususan, iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha belgilangan vazifalarning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

**Maqsad va uni asoslash.** Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijda ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, xorijda S.R.Crane<sup>2</sup>, S.R.Xavier<sup>3</sup>, G.M.Cardella<sup>4</sup>, A.Bullough<sup>5</sup>, V.Yadav<sup>6</sup>, V.A.Morozov<sup>7</sup>, A.Y.Bajenov<sup>8</sup>, R.Gallyamov<sup>9</sup> va S.U.Astanova<sup>10</sup> kabi olimlar ushbu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar o‘tkazgan.

Janubiy Missisipi universiteti professori Sara Krane o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatining mamlakat iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini gender

**Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijda ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.**

<sup>2</sup> Crane, S.R. (2022), “Entrepreneurship and economic growth: does gender matter?”, International Journal of Gender and Entrepreneurship, Vol. 14 No. 1, pp. 3–25. <https://doi.org/10.1108/IJGE-04-2021-0056>

<sup>3</sup> Siri Roland Xavier. Women Entrepreneurs: Making A Change from Employment to Small and Medium Business. Ownership. [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(12\)00347-4](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(12)00347-4)

<sup>4</sup> Cardella G.M. Hernández-Sánchez BR and Sánchez-García JC (2020) Women Entrepreneurship: A Systematic Review to Outline the Boundaries of Scientific Literature. Front. Psychol., 17 July 2020. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.01557>

<sup>5</sup> Bullough A., Guelich U., Manolova T.S. et al. Women’s entrepreneurship and culture: gender role expectations and identities, societal culture, and the entrepreneurial environment. Small Bus Econ 58, 985–996 (2022). <https://doi.org/10.1007/s11187-020-00429-6>

<sup>6</sup> Yadav V., Unni J. Women entrepreneurship: research review and future directions. J Glob Entrepr Res 6, 12 (2016). <https://doi.org/10.1186/s40497-016-0055-x>

<sup>7</sup> Морозов В.А. Женское предпринимательство как основа развития малого бизнеса. Журнал “Российское предпринимательство” – № 3 (39), Март 2003. – С. 3–10.

<sup>8</sup> Баженов А.Ю. Женское предпринимательство – перспективный потенциал развития экономики. Журнал “Российское предпринимательство”. Том 19. – №5. 2018. – С. 1699–1709.

<sup>9</sup> Галлямов Р. Особенности женского предпринимательства в современной России.

<sup>10</sup> Астанова С.У. Женское предпринимательство: проблемы и перспективы развития. Актуальные вопросы современной экономики. Статья в выпуске: 9, 2018 года.

xususiyatni inobatga olgan holda baholagan hamda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha o'z xulosalarini ishlab chiqqan<sup>11</sup>.

Delaver universiteti professori Amanda Bullou ayollar tadbirkorligi mamlakatda yangi ish o'rinalarini yaratishda va ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta hissaga ega ekanligini yoritib bergan. Shuningdek, olim o'z tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligi va madaniyatini tadqiq qilib, iqtisodiyot tarmoqlarida ayollarning gender rolini oshirish imkoniyatlarini ochib bergan<sup>12</sup>.

**The Boston Consulting Group (BCG) xalqaro kompaniyasi tahlilchilarining 2019-yildagi xulosasiga ko'ra, jahon amaliyotida ayollar boshchiligidagi biznes ijobiy natijalarga erishmoqda.**

Rossiya Fanlar akademiyasi Ufa ilmiy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi professori R.Gallyamov ayollar tadbirkorligi va biznes faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi gender tengsizlik va to'siqlar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Olim sotsiologik so'rovlар natijasida ayollarning tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanishiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqqan.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish masalalarini ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasida ko'rish mumkin. **The Boston Consulting Group (BCG) xalqaro kompaniyasi tahlilchilarining 2019-yildagi xulosasiga ko'ra, jahon amaliyotida ayollar boshchiligidagi biznes ijobiy natijalarga erishmoqda.** Ayrim mamlakatlarda ayollar rahbarlidagi kompaniyalar yalpi ichki mahsulotning 50–60 foizini tashkil qiladi. Masalan, Germaniya va AQSHda bunday korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50–52 foiz, Yaponiyada 55 foiz, Italiyada 60 foizni tashkil qiladi<sup>13</sup>. Xalqaro The Boston Consulting Group (BCG) tahlilchilari biznes hamjamiyatidagi gender farqlarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelishdi. Ayollarni tadbirkorlikka erkaklar bilan teng ravishda jalb qilish jahon yalpi ichki mahsulotini, taxminan, 3–6 foizga, jahon iqtisodiyotiga esa qo'shimcha 2,5 trln AQSH dollardan 5 trln dollargacha oshirish imkonini beradi. Qoida tariqasida dunyo bo'ylab erkaklar o'z biznesini boshlash ehtimoli ko'proq. The Boston Consulting Group kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra, ortiqcha balans 4–6 foizni tashkil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda

<sup>11</sup> Crane S.R. (2022), "Entrepreneurship and economic growth: does gender matter?", International Journal of Gender and Entrepreneurship, Vol. 14 No. 1, pp. 3–25. <https://doi.org/10.1108/IJGE-04-2021-0056>

<sup>12</sup> Bullough A., Guelich U., Manolova T.S. et al. Women's entrepreneurship and culture: gender role expectations and identities, societal culture, and the entrepreneurial environment. Small Bus Econ 58, 985–996 (2022). <https://doi.org/10.1007/s11187-020-00429-6>

<sup>13</sup> [https://damu.kz/news/detail.php?ELEMENT\\_ID=28925](https://damu.kz/news/detail.php?ELEMENT_ID=28925)

ayollar tomonidan tashkil etilgan yirik hajmdagi “start up” loyihalar natijasida Vyetnam, Meksika, Indoneziya va Filippinda ayollar gender tafovuti bartaraf etilgan. Boshqa ko‘pgina mamlakatlarda gender tafovuti asta-sekin yo‘q bo‘lib bormoqda. Xususan, eng faol Turkiya, Janubiy Koreya va Slovakiyada ayollarning tadbirkorlikdagi ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq, dunyoning 40 foiz mamlakatlarida, shu jumladan, Shvetsariya, Urugvay va Janubiy Afrika mamlakatlarida biznesda ayollar va erkaklar tengsizligi kuchaymoqda. The Boston Consulting Group kompaniyasi tahlilchilarining ta’kidlashicha, ayollar boshchiligidagi biznes ko‘pincha ijobiy natijalarga erishadi va hatto erkaklarnikidan ham oshib ketadi<sup>14</sup>.


Mastercard kompaniyasi tomonidan 2017-yilda ilk marotaba “tadbirkor ayollar indeksi” (**Index of Women Entrepreneurs**) ishlab chiqilgan. Kompaniya tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ayollar, asosan, o‘z bizneslarini ehtiyojdan kelib chiqib iroda kuchi bilan rivojlantiradilar. Ayollarning o‘z biznesini boshlashiga to‘sinqilik qiladigan ikkita asosiy to‘sinq, ya’ni cheklangan madaniy an’analar va kasbiy o‘sish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi keltirilgan. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish va tijorat faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi qulay muhitni yaratish xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadbirkor ayollar indeksi bo‘yicha Isroil (74,66 ball), AQSH (72,00 ball), Shveysariya (71,51 ball), Yangi Zelandiya (70,13) va Polsha (68,92) kabi mamlakatlar yuqori reytingga ega bo‘lgan. Bu mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay biznes muhiti yaratilgan (1-rasm).

Bu indeks qiymatining ortishiga turli omillar sabab bo‘lgan. Masalan, Shvetsiyada tadbirkor ayollar indeksi 2020-yilda 2019-yildagi 62,6 (25-o‘rin) dan 68,3 (8-o‘rin) ga ko‘tarilgan. Bunda ayollar tadbirkorlik faolligi ko‘rsatkichining yuqori qiymatiga **tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi omillar hamda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning** keskin o‘sishi hisobiga erishilgan. Polshadagi ayollar tadbirkorligi sohasida ham kuchli taraqqiyot kuzatilmoqda. Xususan, Polsha 2020-yilda 2019-yilga nisbatan umumiy reytingda 11 pog‘ona yuqoriga, ya’ni 5-o‘ringa ko‘tarilgan (indeks qiymati 64,5 dan 68,9 ga ortgan). Bunda asosiy omillar bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatidagi gender tafovutini 25 foizdan 10 foizga qisqartirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashni keskin yaxshilash, tadbirkorlarning madaniy idrokini oshirish kabilar hisoblanadi.

**Tadbirkor ayollar indeksi bo‘yicha  
Isroil (74,66 ball),  
AQSH (72,00 ball),  
Shveysariya (71,51 ball), Yangi Zelandiya (70,13) va Polsha (68,92) kabi mamlakatlar yuqori reytingga ega bo‘lgan. Bu mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay biznes muhiti yaratilgan**

<sup>14</sup> <https://plus.rbc.ru/news/5dda0b867a8aa967dba741ba>



*1-rasm. Mastercard kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan “tadbirkor ayollar indeksi”: biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun eng yaxshi sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan davlatlar (2020 yil)<sup>15</sup>*

Nisbatan pastroq daromadli mamlakatlarda, xususan, Uganda (34,8 foiz), Bangladesh (31,6 foiz) va Vyetnam (31,4 foiz)da tadbirkorlar orasida ayollarning yuqori ulushi kuzatilgan. Ushbu davlatlarda ayollar tijorat faoliyatini ko‘pincha o‘z bizneslarini ochishga undaydigan imkoniyatlar tufayli emas, balki ehtiyoj tufayli boshlashadi (1-javdal).

*I-javdal  
Tadbirkorlikda ayollarning ulushi eng yuqori bo‘lgan davlatlar<sup>16</sup>*

Davlatlar	Davlatlar
1. Uganda – 34,8%	6. Bangladesh – 31,6%
2. Botsvana – 34,6%	7. Vyetnam – 31,4%
3. Yangi Zelandiya – 33,3%	8. Xitoy – 30,9%
4. Rossiya – 32,6%	9. Ispaniya – 30,8%
5. Avstriya – 32,4%	10. AQSH – 30,7%

<sup>15</sup> Mastercard. The Mastercard Index of Women Entrepreneurs 2020. – P. 11.

<https://www.mastercard.com/news/media/lulpy5at/miwe-report-2020.pdf>

<sup>16</sup> <https://newsroom.mastercard.com/ru/press-releases/рейтинг-mastercard-index-of-women-entrepreneurs--показал-в-каких-стран/>

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'z biznesini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmaga kengroq kirish imkonini bo'lsa, ayollar o'z salohiyatini to'liq amalga oshirishlari, maqsadlariga erishishlari va shu tariqa inklyuziv o'sishni tezlashtirishlari mumkin. "Tadbirkor ayollar indeksi" ishbilarmonlik muhiti eng qulay bo'lgan mamlakatlarda "ixtiyoriy tadbirkorlar" ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish, biznes yuritishda to'siqlarning yo'qligi, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yuqori sifatli tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. Ayollarga nisbatan madaniy stereotiplar tufayli Hindiston (49-o'rin, 41,7 ball), Saudiya Arabistoni (52-o'rin, 37,2 ball) va Misr (53-o'rin, 34,0 ball) kabi davlatlar tadbirkor ayollar reytingda past o'rirlarga ega. Ular ayollarga yetakchilik mavqeini egallashni yoki bozor biznesmenlariga taqdim etayotgan imtiyozlardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Tadqiqotga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini boshlashdagi asosiy to'siqlar mablag'ning yoki vechur kapitalning yetishmasligi, qonunchilikdagi cheklovlar yoki samarasiz davlat institutlari, shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqlik, ijtimoiy-madaniy cheklovlar, ma'lumot yetishmasligi va o'ziga ishonchsizlikdir. Tadqiq qilingan 54 mamlakatning deyarli barchasida ayollarning biznesni muvaffaqiyatli olib borishiga to'sqinlik qiluvchi ushbu omillardan kamida bittasi mavjud.

"Heritage" (Meros) jamg'armasi tomonidan "Wall Street Journal" bilan hamkorlikda "**Iqtisodiy erkinlik indeksi – 2022**" hisobotida mamlakatlarning indeks ko'rsatkichlari va reytingidagi pozitsiyalarning o'zgarganligi to'g'risidagi natijalar e'lon qilindi<sup>17</sup>. Iqtisodiy erkinlik indeksining "**biznes erkinligi**" indikatori bo'yicha "**ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi**" subindikatori keltirilgan<sup>18</sup>. Ushbu hisobotga ko'ra, O'zbekistonda "iqtisodiy erkinlik" indeksi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2,6 punktg'a pasayib, 55,7 ga (reytingda 108-o'rindan 117-o'ringa pasayish) teng bo'lgan. Mamlakatimizda "biznes erkinligi" indikatori qiymati 2021-yilda 73,5 ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 59,1 ga teng bo'lgan<sup>19</sup>. Biznes erkinligi indikatori qiymatining pasaygani ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi subindikatori qiymatining kamayganini bildiradi. Bu esa ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlar hali yetarlicha ekanligidan dalolat beradi.

*"Heritage" (Meros)  
jamg'armasi  
tomonidan "Wall  
Street Journal"  
bilan hamkorlikda  
"**Iqtisodiy erkinlik  
indeksi – 2022**"  
hisobotida  
mamlakatlarning  
indeks  
ko'rsatkichlari  
va reytingidagi  
pozitsiyalarning  
o'zgarganligi  
to'g'risidagi  
natijalar e'lon  
qilindi*

<sup>17</sup> <https://www.heritage.org/index/ranking>

<sup>18</sup> [https://www.heritage.org/index/pdf/2022/book/02\\_2022\\_IndexOfEconomicFreedom\\_METHODOLOGY.pdf](https://www.heritage.org/index/pdf/2022/book/02_2022_IndexOfEconomicFreedom_METHODOLOGY.pdf)

<sup>19</sup> [https://www.heritage.org/index/pdf/2021/book/index\\_2021.pdf](https://www.heritage.org/index/pdf/2021/book/index_2021.pdf)

**Kanadada bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalarning atigi 16 foizi ayollarga tegishli. Kanada hukumati tadbirkorlik va kichik biznes xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rolini yaxshilash hamda o'rta sinfni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini tan oladi.**

AQSHda ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish uchun maxsus bank tashkil etilgan. Moliyaviy tashkilot asoschilari ishbilarmonlik muhitidagi gender tafovutini bartaraf etish va ayollarning biznes uchun pul olishlarini osonlashtirish maqsadida 1975 yilda ushbu “Birinchi ayollar banki” (**First Women's Bank**) bankini tashkil etishdi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, AQSH biznes muhitida ayollar va erkaklar kapitaldan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarga ega bo'lman. Ayollar rahbarligidagi korxonalarga, odatda, banklar tomonidan kreditlar kamroq beriladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar ko'p hollarda erkaklarga nisbatan kreditlarni o'z vaqtida qaytaradilar. Xususan, Rossiyada xotin-qizlarning 87 foizi kreditlarni kechiktirmay to'lasa, bu ko'rsatkich erkaklarda 82 foizni tashkil qiladi<sup>20</sup>. First Women's Bank faoliyatida pul chiqarishdan tashqari, bank xodimlari amerikalik xotin-qizlarga biznes masalalari bo'yicha maslahat beradilar va o'z bizneslarini rivojlantirishning barcha bosqichlarida yordam berishadi. Birinchi ayollar banki yirik kompaniyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, shuningdek, bank tomonidan qora tanli ayollarga alohida e'tibor beriladi.

**Kanadada bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalarning atigi 16 foizi ayollarga tegishli. Kanada hukumati tadbirkorlik va kichik biznes xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rolini yaxshilash hamda o'rta sinfni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini tan oladi. Kanada hukumati tomonidan 2018-yilgi Byudjetda e'lon qilingan yangi investitsiyalar asosida 2025-yilgacha ayollarga tegishli tadbirkorlik subyektlari sonini ikki baravar oshirish maqsadi belgilandi<sup>21</sup>. Shuning uchun Kanada hukumati tadbirkor ayollarga e'tibor qaratib, o'z iqtisodiyotini jonlantirish maqsadida “**Ayollar tadbirkorligi strategiyasi**” (Women Entrepreneurship Strategy – WES)ni ishlab chiqqan. Ushbu strategiya 2 milliard dollarlik sarmoyani o'z ichiga oladi. Kanada yalpi ichki mahsulotini 150 mld AQSH dollargacha oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bunga erishishda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish juda katta ahamiyatga ega<sup>22</sup>. Dastur tadbirkor bo'lishni xohlovchi kanadalik ayollar orasida talabning ortishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kanadalik ayollar boshqa G20 mamlakatlaridagi hamkasblariga**

<sup>20</sup> <https://www.newsfactory.su/ru/economy/330243-v-ssha-poyavilsya-spetsialnyj-bank-dlya-zhenschin>

<sup>21</sup> Women's Entrepreneurship Strategy SEA Public Statement. URL: <https://www.ic.gc.ca/eic/site/sea-ees.nsf/eng/ey00049.html> (07.02.2022)

<sup>22</sup> <https://immigrant.today/canada/14416-novye-vozmozhnosti-dlya-zhenshhin-predprinimatej-v-kanade.htm>

qaraganda tezroq biznes boshlashadi. So‘nggi 20 yil ichida Kanada iqtisodiyotida tadbirkorlik muntazam o‘sib bordi va bunda ayollarning ulushi ancha yuqori<sup>23</sup>.

Kanadada tadbirkorlik faoliyatida vechur kapitalini jalb qilish hamma uchun qiyin, lekin ayollar uchun bu ancha mashaqqatli hisoblanadi. O‘z tadbirkorligini kengaytirmoqchi bo‘lgan Kanada kompaniyalarining atigi 10 foizini ayollar boshqaradi. Ayollar boshchiligidagi kompaniyalarning yuqori mahsuldarligiga qaramay, erkak vechur kapitalistlar ayollar boshchiligidagi kompaniyalarga sarmoya kiritmaydi, agar kiritganda ham kamroq sarmoya kiritadilar. So‘nggi yillarda Kanadada yirik firmalardagi vechur kapitalist ayollarning ulushi ikki baravar ko‘paydi, ammo bu ko‘rsatkich hali ham juda past (14 foiz). **Kanada biznesni rivojlantirish banking** (Business Development Bank of Canada, BDC) **Texnologiya sohasida ayollar kapitali jamg‘armasi** (Capital Women in Technology Fund, WIT) ushbu ko‘rsatkichni oshirish uchun kelgusi besh yil ichida 200 mln AQSH dollar sarmoya kiritdi. U boshqaruvida to‘liq yoki qisman ayollar bo‘lgan texnologiya kompaniyalariga sarmoya kiritadi<sup>24</sup>.

**Finlyandiya** ayollar o‘rtasida tadbirkorlik ulushi bo‘yicha xalqaro reytingda yuqori o‘rinlardan birini egallab turibdi, bu Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari uchun yaxshi namuna bo‘lmoqda. Finlyandiyalik ayollar yaxshi ma’lumotga ega va yildan yilga OECD ta’lim so‘rovlarida birinchi o‘rinni egallab kelmoqdalar. Finlyandiya ayollari boy ish tajribasi, malakasi va keng aloqalariga ega. Ayollar Finlyandiya aholisining qariyb yarmini tashkil qiladi, biroq ularning tadbirkorlikdagi ulushi so‘nggi o‘n yil ichida deyarli 30 foizga ega bo‘ldi. Aytish joizki, xotin-qizlarning bilim darajasi juda yuqori, tadbirkorlikka intilish, tadbirkorlik faoliyati to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanmoqda. Finlyandiyada ayol tadbirkorlar uchun mavjud bo‘lgan moliyalashtirish, maslahat va biznes xizmatlari kabi vositalar ham ularning tadbirkorlar faoliyatini yanada rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda. E’tiborli jihat shundaki, Finlyandiyada ayollar tomonidan boshqariladigan firmalarda faqat bir ayol boshqaruvchi bo‘lgan korxonalar ustunlik qiladi. Yakka tartibdagи tadbirkorlik ayollar orasida yanada keng tarqalgan<sup>25</sup>.

***Finlyandiya  
ayollar o‘rtasida  
tadbirkorlik ulushi  
bo‘yicha xalqaro  
reytingda yuqori  
o‘rinlardan birini  
egallab turibdi,  
bu Yevropa  
Ittifoqining boshqa  
mamlakatlari  
uchun yaxshi  
namuna  
bo‘lmoqda.***

<sup>23</sup> Impact to-date: BDC Capital’s Women in Technology Venture Fund invests in 25 companies. URL: <https://www.bdc.ca/en/about/mediaroom/news-releases/bdc-capital-women-technology-venture-fund-invests-in-25-companies>

<sup>24</sup> Impact to-date: BDC Capital’s Women in Technology Venture Fund invests in 25 companies. URL: <https://www.bdc.ca/en/about/mediaroom/news-releases/bdc-capital-women-technology-venture-fund-invests-in-25-companies>

<sup>25</sup> <https://www.goodnewsfinland.com/ru/opinion/o-zhenshhinah-predprinimateyah/>

**Bangladeshda  
1991–2010-yillarda  
20 million aholi  
qashshoqlikdan  
chiqarilgan. Bu  
davr mobaynida  
kambag‘allarning  
umumiyligi ulushi  
44,2 foizdan 18,5  
foizgacha qisqardi.**

Norvegiyada tadbirkor ayollar uchun turli xil dasturlar mavjud<sup>26</sup>:

- **Innovasjon Norge** kompaniyasining “Ayollar va biznes” dasturi. Uning maqsadi ayollarning biznes asoschilari, yetakchilari yoki boshqaruv kengashi a’zolari sifatidagi rolini oshirishga qaratilgan. Tashkilot har yili tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishgan ayollarni rag‘batlantirish va ularni namoyish etish maqsadida yilning “tadbirkor ayoli” nominatsiyasini tashkil qiladi;
- Norvegiya sanoatchilar va tadbirkorlar ittifoqi (NHO) “Ayollar va kelajak” dasturini amalga oshiradi. Ushbu xayrli tashabbus ayollarga rahbarlik lavozimlarini egallash, direktorlar kengashida yoki xususiy sektorda ishlash uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratishga qaratilgan’;
- va nihoyat, eng muhimi, yosh avlodning tadbirkorlik va biznes haqidagi ilk tushunchalarini shakllantirishga yordam beruvchi “Yosh tadbirkorlar” dasturi. Tadbirlarga qizlarni jalg etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Bangladeshda** 1991–2010-yillarda 20 million aholi qashshoqlikdan chiqarilgan. Bu davr mobaynida kambag‘allarning umumiyligi ulushi tarkibidagi ulushi 44,2 foizdan 18,5 foizgacha qisqardi. Bunda kambag‘al ayollarni tadbirkorlikka yo‘naltirish va ularni mikromoliyalashtirish masalasiga juda katta e’tibor qaratildi. Bangladesh tajribasini o‘rganishda, Bangladeshlik bankir, iqtisodiyot fanlari doktori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish g‘oyasi uchun Nobel mukofoti sovrindori, Grameyen Bank rahbari va asoschisi – **Muhammad Yunusning kambag‘allikdan chiqarish uchun mikromoliyalash usuli** muhim ahamiyatga ega. Yunus islom jamiyati uchun radikal qadam tashladi: u hatto badavlat oilalarda ham kredit va pul munosabatlardan chetda qolgan ayollarga qarz bera boshladи. Uning fikriga ko‘ra, ayollar uzoq muddatli istiqbolga ega, ular ancha vijdonli va birinchi navbatda, bolalarga g‘amxo‘rlik qilishadi. Shunday qilib, Yunusning dastlabki maqsadi o‘z mijozlari orasida ularning ulushini 50 foizga yetkazish edi. Bank xodimlari uyma-uy yurib, aholining, ayniqsa, ayollarning moliyaviy savodxonligini oshirishi olti yil davom etdi. Grameyen Bank ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda ayollar moliya instituti mijozlarining 97 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, qarz oluvchilarning umumiyligi soni taxminan 7,08 million kishiga yetadi. Bankning garovsiz chiqaradigan pullarni qaytarish ko‘rsatkichi 98 foizni tashkil qiladi<sup>27</sup>.

**Qozog‘istonda** ayollar umumiyligi aholining 51 foizini, band aholi ulushida esa deyarli yarmini, ya’ni 49 foizni tashkil qiladi. Xotin-qizlar tadbirkorligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 39 foizni tashkil

<sup>26</sup> <https://www.norway.no/ru/russia/norway-russia/news-events2/murmansk/news/>

<sup>27</sup> <https://asaf-today.ru/s03215075000696-7-1/>

etmoqda. Qozog‘iston vaziyatni bosqichma-bosqich o‘zgartirib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy tarkibida ayollar tadbirkorligi ulushini oshirib bormoqda. Bu boradagi davlat siyosatining faol olib boruvchisi “Bayterek” xoldingiga qarashli “Damu” tadbirkorlikni rivojlantirish jamg‘armasi hisoblanadi. Bu yerda qozog‘istonlik ishbilarmon ayollar o‘z biznesini qurish istagida yordam topish imkoniga ega. So‘nggi o‘n yillikda ayollarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining assosiy instrumentlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ayollar tadbirkorligini so‘nggi mikrokreditlash uchun mablag‘larni ikkinchi darajali banklarga shartli joylashtirish dasturi.
2. Osiyo taraqqiyot banki (The Asian Development Bank, ADB) kreditlari.
3. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (European Bank for Reconstruction and Development, EBRD) “Ayollar biznesda” dasturi.
4. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat dasturi doirasida “Biznes yo‘l xaritasi – 2025”.

Ushbu dasturlar orqali Jamg‘armaning barcha dasturlari bo‘yicha moliyaviy ko‘mak olgan tadbirkorlar umumiy sonining 57,6 foizini ayollar tashkil etadi.

**Yakuniy qism.** Ko‘plab xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash dasturlari xususiy tadbirkorlik va kichik biznesda gender tengsizlikning kamayishiga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ayollar faolliginining oshishiga, bandlik ko‘rsatkichining yaxshilanishiga, oxir-oqibatda esa mamlakat iqtisodiy o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlagan xotin-qizlarga mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish bilan bog‘liq barcha to‘siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatgan xotin-qizlarga o‘z faoliyatini qayta boshlashida ko‘mak berish, ularning tadbirkorlik hamda biznes faoliyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib borish, shuningdek, qishloq joylarida vaqtinchha ishsiz ayollarni tadbirkorlikka yo‘naltirish mamlakatimizda tadbirkorlik va biznesda xotin-qizlar ulushining ortishiga xizmat qiladi.

**Xotin-qizlar** o‘rtasida **tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish** va ushbu yo‘nalishda ularni qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekistonning “biznes erkinlik” indikatori tarkibida “ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi” subindikatori bo‘yicha reytingini oshirish yuzasidan ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ayollarning norasmiy haq to‘lanadigan, kasanachilik, mikrofirma,

*Ko‘plab xorijiy  
mamlakatlar  
tajribasi shuni  
ko‘rsatadiki,  
xotin-qizlarning  
tadbirkorlik va  
biznes faoliyatini  
qo‘llab-quvvatlash  
dasturlari xususiy  
tadbirkorlik  
va kichik  
biznesda gender  
tengsizlikning  
kamayishiga,  
ijtimoiy-iqtisodiy  
hayotda ayollar  
faolliginining  
oshishiga, bandlik  
ko‘rsatkichining  
yaxshilanishiga,  
oxir-oqibatda esa  
mamlakat iqtisodiy  
o‘sishiga ijobjiy  
ta’sir ko‘rsatadi.*

kichik va o‘rta korxonalar, qishloq xo‘jaligi, yakka tartibdagi yoki to‘liq bo‘limgan ish kunida ish bilan bandligiga o‘tishga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish va ish haqi bilan ta‘minlash, norasmiy iqtisodiyotda ishchilarning xavfsizligi va sog‘lig‘ini rag‘batlantirish orqali norasmiy iqtisodiyotda ishlashga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfli va nosog‘lom mehnat sharoitlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish lozim.

**Mahallalarda  
oilaviy  
tadbirkorlikni  
tashkil etish  
bo‘yicha imkoniyat  
va shart-sharoitlar  
kengayib  
borayotgan bo‘lsa-  
da, oilalarda  
yetarli bilim va  
ko‘nikmalarining  
yo‘qligi va bozor  
konyuktura  
o‘zgarishlariga  
mos ixtisoslashish  
jarayonlarining  
yo‘lga  
qo‘yilmaganligi  
ushbu faoliyatning  
yanada  
kengayishiga to‘siq  
bo‘lmoqda.**

2. Qishloq ayollari va ayol fermerlarining qishloq xo‘jaligiga qo‘sghan hissasini mustahkamlash hamda qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy farovonligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, shu jumladan kichik fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish va ta‘minlash, ular teng ravishda qishloq xo‘jaligi texnologiyalariga ega bo‘lishlari uchun tegishli investitsiyalarni amalga oshirish, texnologiyalarni o‘zaro kelishilgan sharoitda o‘tkazish, kichik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va mahsulot taqsimoti doirasida innovatsion vositalardan foydalanish, ayol fermerlarning daromadlarini oshirish hamda ularning salbiy ta’sirlarga chidamlilagini mustahkamlash, shuningdek, mavjud bo‘shliqlar va to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli hamda ko‘p tarmoqli strategiyalarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini mahalliy, mintaqaviy, xalqaro bozorlarda sotishga to‘sinqlik qilayotgan omillarni bartaraf etish zarur.

3. Davlat moliyasini boshqarishda genderga mos yondashuvni qo‘llab-quvvatlash va institutsionallashtirish, shu jumladan, genderga mos byudjetlashtirish va barcha sektorlar bo‘yicha davlat xarajatlarini kuzatish, gender tengligi hamda ularning imkoniyatlarini kengaytirish uchun resurslardagi bo‘shliqlarni bartaraf etish hamda gender tengligi, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha barcha milliy hamda sanoat strategiyalarini sarf-xarajatlar nuqtayi nazaridan to‘liq baholash, ularni samarali amalga oshirish uchun zarur resurslar bilan ta‘minlash lozim.

4. Xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish bo‘yicha imkoniyat va shart-sharoitlar kengayib borayotgan bo‘lsa-da, oilalarda yetarli bilim va ko‘nikmalarining yo‘qligi va bozor konyuktura o‘zgarishlariga mos ixtisoslashish jarayonlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi ushbu faoliyatning yanada kengayishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Mahallalarda iqtisodiy manfaatdorlikni birlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini faoliyatning ma’lum turlari bo‘yicha ixtisoslashtirish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda ishlab chiqarish kooperatsiyalarini tashkil qilish lozim. Bunda mahalla fuqarolar yig‘ini va mahallabay

ishlash tizimi xodimlari hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda mahallalarning o'sish nuqtalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik guruhlari shakllantiriladi. Ularning ichki zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ma'lum faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashtirish jarayonlari olib boriladi. Ushbu jarayonlar natijasida xotin-qizlarni ishga jalg qilgan holda o'zaro hamkorlikdagi ishlab chiqarish kooperatsiyalari tashkil qilinadi. Mazkur mexanizmning joriy qilinishi mahallalarda xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishi, bozor o'zgarishlariga tez moslashishi va oilalar daromadlarini kengayishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Qo'llab-quvvatlovchi moliyalashtirish dasturlarini joriy qilish lozim. Ushbu kredit dasturlari tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromaddan ulush olish tamoyiliga asoslangan bo'lishi lozim. Bunda Markaziy bank tomonidan ushbu dasturlar uchun yo'naltirilgan pul tijorat banklariga qayta moliyalash stavkasisiz taqdim etiladi. Bunday dasturlar tijorat banklarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarning o'z bizneslarini yanada rivojlantirishda manfaatdor bo'ladilar. Bu esa xotin-qizlar tadbirkorliginining rivojlanishiga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

6. Xotin-qizlar uchun lizing dasturlarini kengaytirish lozim. Bunda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun zarur jihozlar, asbob-uskunalarini amortizatsiya muddati bilan tenglashtirilgan davrga dastlabki 3–6 oylik imtiyozli davr bilan lizingga berish tartibi joriy qilinadi.

7. Mahallalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan ayollar uchun ularning iqtisodiy-huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida bepul o'quv seminarlarini davriy ravishda tashkil etish tartibini joriy qilish lozim. Ushbu o'quv tadbirlari har oyda davriy ravishda mahalla fuqarolar yig'inlarida tadbirkorlikka o'rgatish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

8. Xotin-qizlar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlashda tayyor tadbirkorlik va biznes namunalarni o'z ichiga olgan elektron kitoblar, audio va video qo'llanmalar yaratish hamda keng ko'lamli targ'ibotlarni olib borish zarur.

**Xotin-qizlar  
uchun tadbirkorlik  
faoliyatini  
boshlashda tayyor  
tadbirkorlik  
va biznes  
namunalarni  
o'z ichiga olgan  
elektron kitoblar,  
audio va video  
qo'llanmalar  
yaratish hamda  
keng ko'lamli  
targ'ibotlarni olib  
borish zarur.**

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартағи “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жасамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада тақомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-5020-сонли қарори.
3. Crane S.R. (2022), «*Entrepreneurship and economic growth: does gender matter? International Journal of Gender and Entrepreneurship*, Vol. 14 No. 1, – P. 3-25. <https://doi.org/10.1108/IJGE-04-2021-0056>
4. Siri Roland Xavier: *Women Entrepreneurs: Making A Change from Employment to Small and Medium Business. Ownership.* [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(12\)00347-4](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(12)00347-4)
5. Cardella G.M. Hernández-Sánchez BR and Sánchez-García JC (2020) *Women Entrepreneurship: A Systematic Review to Outline the Boundaries of Scientific Literature. Front. Psychol.*, 17 July 2020. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.01557>
6. Bullough A., Guelich U., Manolova T.S. et al. *Women's entrepreneurship and culture: gender role expectations and identities, societal culture, and the entrepreneurial environment. Small Bus Econ* 58, 985–996 (2022). <https://doi.org/10.1007/s11187-020-00429-6>
7. Yadav V., Unni J. *Women entrepreneurship: research review and future directions. J Glob Entrepr Res* 6, 12 (2016). <https://doi.org/10.1186/s40497-016-0055-x>
8. Морозов В.А. Женское предпринимательство как основа развития малого бизнеса. *Российское предпринимательство*. – № 3 (39), Март 2003.
9. Галлямов Р. Особенности женского предпринимательства в современной России.
10. Астанова С.У. Женское предпринимательство: проблемы и перспективы развития. Актуальные вопросы современной экономики. Статья в выпуске: 9, 2018 года.
11. Баженов А.Ю. Женское предпринимательство – перспективный потенциал развития экономики. *Российское предпринимательство. Том 19. – №5. 2018. – С. 1699–1709.*
12. [https://damu.kz/news/detail.php?ELEMENT\\_ID=28925](https://damu.kz/news/detail.php?ELEMENT_ID=28925)
13. <https://plus.rbc.ru/news/5ddaa0b867a8aa967dba741ba>
14. <https://newsroom.mastercard.com/ru/press-releases/рейтинг-mastercard-index-of-women-entrepreneurs--показал-в-каких-стран/>
15. <https://www.newsfactory.su/ru/economy/330243-v-ssha-poyavilsya-spetsialnyj-bank-dlya-zhenschin>
16. *Women's Entrepreneurship Strategy SEA Public Statement. URL:* <https://www.ic.gc.ca/eic/site/seaees.nsf/eng/ey00049.html> (07.02.2022)
17. <https://immigrant.today/canada/14416-novye-vozmoznosti-dlya-zhenshhin-predprinimatej-v-kanade.htm>
18. *Impact to-date: BDC Capital's Women in Technology Venture Fund invests in 25 companies. URL:* <https://www.bdc.ca/en/about/mediaroom/news-releases/bdc-capital-women-technology-venture-fund-invests-in-25-companies>
19. <https://www.goodnewsfinland.com/ru/opinion/o-zhenshhinah-predprinimateyah/>
20. <https://www.norway.no/ru/russia/norway-russia/news-events2/murmansk/news/-----/>
21. <https://asaf-today.ru/s032150750000696-7-1/>
22. <https://www.heritage.org/index/ranking>

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.